



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGINING YAGONA AKSIYADOR (ISHTIROKCHI) QARORI

20 24 yil “11” sentabr

207/09-3-qr - sonli

Toshkent sh.

“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ kuzatuv kengashi tarkibiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 58- va 59-moddalari hamda “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ (keyingi o‘rinlarda – jamiyat) ustaviga asosan, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi **qaror qiladi:**

1. Quyidagilar:

a) “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga asosan:

barcha oddiy aksiyalar bitta aksiyadorga tegishli bo‘lgan jamiyatda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilmasligi, ushbu Qonun va jamiyatning ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo‘yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinishi hamda yozma shaklda rasmiylashtirilishi (58-modda);

jamiyat **kuzatuv kengashining** va minoritar aksiyadorlar qo‘mitasining **son tarkibini belgilash**, ularning **a‘zolarini saylash** va **a‘zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish** aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kirishi belgilanganligi (59-modda);

b) jamiyat Ustavida, kuzatuv kengashi a‘zolari soni **5 nafar** etib belgilanganligi hamda kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, a‘zolarini saylash va vakolatlarini muddatidan oldin tugatish yagona aksiyador vakolatiga kiritilganligi;

d) jamiyat kuzatuv kengashining tarkibi jamiyat yagona aksiyadorining 2023-yil 05-iyuldagi 94/09-3-qr-son qaroriga asosan saylanganligi;

e) jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan Ozodzoda Sherzod Farxod o‘g‘li jamiyat kuzatuv kengashi a‘zosi sifatidagi vakolatlarini muddatidan oldin tugatish to‘g‘risida ariza bilan murojaat etganligi **ma’lumot uchun qabul qilinsin.**

2. "O'zbek geologiya qidiruv" AJ kuzatuv kengashi a'zosi Ozodzoda Sherzod Farxod o'g'lining vakolatlari muddatidan oldin tugatilsin hamda uning o'rniga Davlat aktivlarini boshqarish agentligining boshqarma boshlig'i Tangriyev Sanjar Shamsiqulovich jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga saylansin.

Bunda, jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a'zolar jalb etilgandan so'ng, jamiyat kuzatuv kengashi tarkibi qayta ko'rib chiqilishi belgilab qo'yilsin.

3. Mazkur qaror ijrosi ta'minlanishini nazorat qilish direktorning birinchi o'rinbosari N. Xusanov zimmasiga yuklansin.

Direktor



A.Ortikov